

**“O’zaeronavigatsiya” Markazi Davlat Unitar Korxonasining
Biznes-rejasini bajarilishi to’g’risida**

HISOBOT

hisobot davri: 2023 yil yanvar – dekabr

1. Ishlab chiqarish quvvati

Biznes – rejaga asosan **144 352** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlarini ko’rsatish rejalashtirilgan, shu jumladan transit bo’yicha – **84 943** havo kemalariga, uchish / qo’nishni ta’minlash bo’yicha – **59 409** havo kemalariga. Haqiqatda **187 986** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlari ko’rsatigan bo’lib (Biznes – rejaga nisbatan **30** foizga o’sish), shundan: tranzit bo’yicha – **113 116** ta havo kemalari (Biznes – rejaga nisbatan **33** foizga o’sish), uchish / qo’nishni ta’minlash – **74 870** ta havo kemalariga (Biznes – rejaga nisbatan **26** foizga o’sish) tashkil qildi. 2022-yilling tahlil qilingan davrda **138 977** ta havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlari ko’rsatilgan (2023-yilda **35** foizga o’sish), shundan: tranzit bo’yicha – **81 808** ta havo kemalariga (2023-yilda **38** foizga o’sish), uchish / qo’nishni ta’minlashda **57 169** ta havo kemalariga (2023-yilda **31** foizga o’sish) xizmat ko’rsatilish amalga oshirildi.

2. Pul mablag’lari ko’rinishida ishlab chiqarish hajmi

Ko’rsatkichlari	Prognoz (ming. so’m)	Amalda (ming. so’m)	O’sish (%)
Jami ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan	397 020 000	620 494 427	156
Havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatni taqdim etilishi	385 945 000	609 437 116	158
Boshqa xizmatlar	11 075 000	11 057 312	100

3. Moliyaviy ko’rsatkichlar

Ko’rsatkichlari	Prognoz (ming. so’m)	Amalda (ming. so’m)	O’sish (%)
Jami daromad, shu jumladan	456 013 001	678 878 325	149
Sof daromad	397 020 000	620 494 427	156
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	993 000	7 170 301	722
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	58 000 000	51 213 597	88
Tannarx	238 342 000	243 630 886	102
Jami davr xarajatlari, shu jumladan	86 944 000	114 066 149	131
Amalga oshirish bo’yicha xarajatlari	-	-	-
Ma’muriy xarajatlar	13 229 000	15 133 220	114
Boshqa operatsion xarajatlar	73 715 000	98 932 928	134
Moliyaviy faoliyat bo’yicha xarajatlar	74 780 000	99 673 200	133
Sof foyda / zarar	51 173 000	214 632 378	419

Xizmatlarni amalga oshirishdan olingan sof daromad prognozga nisbatan **56%** oshdi;

Tannarx istiqbol prognoziga nisbatan **2%** oshdi;

Davr xarajatlari istiqbol prognoziga nisbatan **31%** oshdi;

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar moddasi **33%** oshdi;

Sof moliyaviy natija rejalashtirilganga nisbatan **319%** oshdi.

4. Soliqlar

Ko'rsatkichlari	Prognoz (ming. so'm)	Amalda (ming. so'm)	O'sish (%)
Jami soliqlar va byudjetga majburiy to'lovlar, shu jumladan:	57 379 500	65 189 980	114
Daromad solig'i	4 778 000	6 875 713	144
QQS	-2 200 000	-5 522 749	-
Aksiz	-	-	-
YESP	49 251 000	29 996 494	61
Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	-	-	-
Boshqalar	5 550 500	33 840 522	419

Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy qiymati (QQS): O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 263-moddasiga muvofiq xalqaro tashish bilan bog'liq xizmatlarga soliq solish nol stavka bo'yicha amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, QQS byudjetdan qaytarilishi zarurati yuzaga keladi, ya'ni hisobga qabul qilinadigan QQS miqdori xizmatlarni sotishdan olinadigan QQS miqdoridan yuqoridir.

5. Sof foydani taqsimlash

Nomi	Prognoz (ming. so'm)	Amalda (ming. so'm)	O'sish (%)
Sof foyda	51 173 000	214 632 378	419
Jami dividendlar to'loviga, shu jumladan:		68 355 768	
Davlat ulushi bo'yicha		68 355 768	
Ulardan to'langani		68 355 768	
Zahira fondiga			
Korxonani rivojlantirishga	46 055 700		-
Boshqalar	5 117 300	6 727 665	131

O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga asosan davlat korxonalari hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar sof foydaning 50 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi ajratmalarni O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga hisoblanishi hamda 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkazilishi belgilanadi.

6. Qarzdorlik

Nomi	Hisobot davri boshiga (ming. so'm)	Reja (ming. so'm)	Hisobot davri ohiriga (ming. so'm)	Ulardan muddati o'tgan (ming. so'm)
Debitorlik qarzdorlik	134 022 064	84 785 000	207 062 589	203 993
Kreditorlik qarzdorlik	7 947 958	14 096 000	24 121 055	-

Muddati o'tgan debitorlik qarzlari O'zbekiston Respublikasi havo hududida tranzit reyslarini amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalarga ko'rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlari uchun to'lovlarning to'lanmaganligi natijasida yuzaga keldi.

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun tushumlarning kelib tushmasligi aviakompaniyalarning inqirozga uchrashi, Aviakompaniya ekspluatanti Sertifikatidan mahrum qilinishi, havo kemalarining lizing shartnomasi muddatlarining tugashi, aviakompaniyaning parvozlar geografiyasining o'zgarishi va aviaofatlari bilan bog'liq bo'ldi.

Korxonada muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emas.

7. Tashqi qarz

ming AQSH dollari

Nomi	(01.01.2023y.) davri boshlanishiga qoldiq	Olindi	Qaytarildi	(01.01.2024y.) davri ohiriga qoldiq
Korxonaning tashqi qarzi, shu jumladan:	17 367	0	4 039	13 328
Davlat kafolati bo'yicha	17 367	0	4 039	13 328
Dalat kafolatisiz, shu jumladan:	-	-	-	-
Bo'ysunuvchi tashkilotlar Kafolati	-	-	-	-
Korxonani o'z kafolati bo'yicha	-	-	-	-
Boshqa tashkilotlarning kafolati	-	-	-	-

Korxonada Samarqand, Buxoro, Urganch aeroportlari havo kemalari parvozlarini ta'minlash bo'yicha radiotexnika asbob-uskunalarini modernizatsiya qilinishiga «O'zbekiston havo yo'llari» MAK va «Aleniya Markoni Sistemz» (Italiya) o'rtasida tuzilgan kontrakt bo'yicha kredit majburiyatlariga ega. Kontraktning moliyalashtirish hukumat kafolati ostida amalga oshirilgan: O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi va va JBIC (Yaponiya) bankning 17.12.1996 yildagi UZB-P3 va 14.12.1996 yildagi UZB-P5-sonlardagi kontraktlari kontraktlari.

Uskunalar 2000 yilda ishga tushirilgan.

Kredit muddatini kechiktirilishi 2006- yilning 20 dekabrgacha belgilangan.

Kredit bo'yicha hisob-kitoblar to'lovlar jadvallari bo'yicha 2026 va 2029 yillargacha (iyun va dekabrda) amalga oshiriladi.

8. Korxonaning tashqi savdo va tashqi moliyaviy faoliyati

Ko'rsatkichlari	Prognoz (ming. AQSH dollari)	Amalda (ming. AQSH dollari)	O'sish (%)
Eksport hajmi	30 000	40 896	136
Import hajmi	5 514	3 667	67
Savdo balansi (eksport va import o'rtasidagi farq)	24 486	37 229	152
Valyuta talabi	0	0	-

9. Samaradorlikning asosiy kўrsatkichlari

9.1. Asosiy ko'rsatkichlar

“Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida”gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son Qarorining 1-sonli Ilovasi) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 dekabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 775-son Qarorining Ilovasiga muvofiq “O'zaeronavigatsiya” Markazi Davlat Unitar Korxonasida korxonalar samaradorligining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

№	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/ 10C
	A	B	C	D	E	F	G
1.	Sotishdan tushgan sof tushum prognozini amalda bajarilishi (ming so'm)	-	15	397 020 835	620 494 427	156,29	23,44
2.	Sof foyda prognozini bajarilishi (ming so'm)	-	15	51 172 630	214 632 378	419,43	62,91
3.	Aktivlarning rentabelligi	> 0,05	8	0,08	0,36	450,0	36

№	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/100
	A	B	C	D	E	F	G
4.	Ishlab chiqarish quvvati ko'effitsiyentidan foydalanish		8	100	130	130	10,4
5.	Qoplama ko'effitsiyenti (to'lov qobiliyati)	>0,2	13	9,5	12,94	136,21	17,71
6.	Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti	>1	13	26,83	20,08	74,84	9,73
7.	Eksport ko'rsatkichlarining bajarilish ko'rsatkichi (belgilangan vazifaga % bilan)	-	15	100	138	138	20,7
8.	Xorijiy valyutaning mustaqillik ko'effitsiyenti	<1	13	0,19	0,09	47,37	6,16
	Jami:		100,00				187,05

9.1.1. Amalga oshirilishi belgilangan sof tushum prognozini bajarish

Ushbu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy holatini tavsiflab, bajarilgan xizmatlarning hajmini ifodalaydi.

Biznes-rejaga nisbatan ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'sish **56,29** foizni tashkil qiladi. SMK- **23,44**.

9.1.2. Sof daromad prognozini bajarish (zarar)

Ushbu ko'rsatkich korxonaning faoliyatining natijalarini aks ettiradi. Biznes-rejaga nisbatan o'sish **319,49** foizni tashkil qiladi. SMK- **62,92**.

9.1.3. Aktivlar rentabelligi

Ushbu ko'rsatkich tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining daromad keltirish darajasini bildiradi. Me'yor: hisobot davridagi rentabellik ko'effitsiyenti quyidagi kattaliklarda bo'lgan holatlarda:

- noldan past (minus ko'rsatkich) holatda tashkilot kasodga uchragan deb hisoblanadi;
- 0,05 dan kam holatda tashkilot past rentabellikga ega deb hisoblanadi (monopolist korxonalar bundan istisno).

Ushbu ko'rsatkich **350%** ni tashkil etib, korxonaning iqtisodiy barqaror hisoblanadi. SMK-**36,0**.

9.1.4. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'effitsiyenti

Ushbu ko'effitsiyent korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi, bu haqiqiy ishlab chiqarish hajmining mumkin bo'lgan

maksimal darajaga nisbati sifatida ifodalanadi (ijaraga olingan va zaxiralangan quvvatni hisobga olmagan holda).

Me'yor: agar hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti 0,5 yoki o'rta tarmoqdan past kattalikda bo'lsa, ushbu holat tashkilotda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past ekanligini anglatadi.

Koeffitsient **1,3** ni tashkil qiladi. SMK – **10,4**.

9.1.5. Qoplama koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati)

Ushbu koeffitsient tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarining to'lov imkoniyatlarini ko'rsatib, ular nafaqat debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay realizatsiya qilish, balki joriy (aylanma) aktivlarning boshqa elementlarini ham hisobga olgan holda baholanadi.

Me'yor: mazkur koeffitsientning minimal miqdori - 0,2.

Koeffitsient **12,94** dan iborat. SMK – **17,71**.

9.1.6. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti

Ushbu koeffitsient qisqa muddatli zayom qarz mablag'larini qaytarishda o'z manbalari bilan ta'minlanganlik darajasini belgilaydi.

Me'yor: mazkur koeffitsientning minimal miqdori - 1.

Koeffitsient **20,08** ni tashkil qiladi. SMK – **9,73**.

9.1.7. Eksport ko'rsatkichlarini bajarish ko'rsatkichi

Bu tegishli davlat dasturi tomonidan belgilanadigan maqsadli ko'rsatkich (istiqbol prognozi) ko'rsatkichdir.

Koeffitsient **138** ni tashkil qiladi. SMK – **20,7**.

9.1.8. Chet el valyutasidan mustaqillik koeffitsiyenti

Ushbu koeffitsient import va eksportning nisbatini, ya'ni import qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun to'lovlar tovarlarni eksport qilish orqali qoplanish darajasini ko'rsatadi.

Me'yor: minimal miqdori 1 dan kam kattalikdan iborat.

Koeffitsient **0,9** ni tashkil qiladi. SMK – **6,16**.

Barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha korxonada belgilangan me'yorlar doirasida ishlamoqda.

9.2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar

№	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/100
	A	B	C	D	E	F	G
1.	Foizlar, soliqlar va amortizatsiya oldidan foyda (EBIT)		30	65 549 022	242 279 537	370	110,88
2.	Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)		15	0,82	0,58	70,73	10,61
3.	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	> 0,2	20	2,2	3,5	159,09	31,82

№	Ko'rsatkichlar	Me'yor	Solishtirma miqdor (%)	Prognoz	Amalda	Bajarilish foizi (%)	SMK C*F/100
	A	B	C	D	E	F	G
4.	Kreditorlik qarzdorligi aylanmasi	< 90	5	13	9	69,2	3,46
5.	Debitorlik qarzdorligi aylanmasi	< 90	5	85	100	85	4,25
6.	Xodimlarni o'qitish xarajatlari har bir xodim uchun hisob-kitob qilish		10	7 421	6 103	82,2	8,22
7.	Kadrlar almashinuvi koeffitsiyenti		7	100	1,01	101	7,07
8.	Energiya samaradorligi		8	0,01	0,01	100	8,0
	Jami:		100,00				184,31

9.2.1. Foizlar, soliqlar va amortizatsiya oldidan foyda (EBIT)

Bu ko'rsatkich tashkilotga qarz badali og'rligining ko'rsatkichi bo'lib, uning kreditorlar oldidagi qarzini sof pul oqimi bilan to'lash qobiliyatini bildiradi. Umuman olganda, ko'rsatkichning miqdori qanchalik baland bo'lsa, tashkilot shunchalik faol ishlagan hisoblanadi.

Biznes – rejaga nisbatan ko'rsatkich **270** foizga o'sdi. SMK – **110,88**.

9.2.2. Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)

Ko'rsatkich amaliyot jarayonlari xarajatlarning (shu jumladan, savdo xarajatlari, tijorat va boshqaruv xarajatlari) daromadga nisbatini aks ettiradi.

Me'yor: qiymat qanchalik past bo'lsa, tashkilot shunchalik faol ishlaydi.

Ko'rsatkich **70,73** ni tashkil qiladi. SMK – **10,61**.

9.2.3. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti

Ushbu ko'rsatkich tashkilotning likvidligining eng qat'iy mezoni bo'lib, zarur hollarda qisqa muddatli zayom qarz majburiyatlarining qancha qismini darhol to'lash qobiliyatini ko'rsatadi.

Me'yor: 0,2 dan kam bo'lmasligi lozim.

Ko'rsatkich **3,5** ni tashkil qiladi. SMK – **31,82**.

9.2.4. Kreditorlik qarzdorligi aylanmasi

Ushbu koeffitsient tashkilot kreditorlik qarzlarning o'rtacha miqdorini necha kun ichida to'lashini ko'rsatadi. Yuqori qiymat tashkilotga to'lanmagan kreditorlik qarzlarning qoldig'idan joriy faoliyatini moliyalashtirishning shartli bepul manbai sifatida foydalanishga imkon beradi.

Ko'rsatkich **9 kuni**ni tashkil qiladi. SMK – **3,46**.

9.2.4. Debitorlik qarzdorligi aylanmasi

Ushbu koeffitsient tashkilotning debitorlik qarzlarini to'lash tezligini, tashkilot o'z xaridorlaridan sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni qanchalik tez olishini o'lchaydi. Umuman olganda, qiymat qanchalik past bo'lsa, ya'ni xaridorlar qarzlarini qanchalik tez to'lasa, tashkilot uchun shuncha ijobiy natijaga erishiladi.

Ko'rsatkich **100 kuni** tashkil qiladi. SMK – **4,25**.

9.2.5. Xodimlarni o'qitish xarajatlari

Ushbu koeffitsient (har bir xodim uchun) xodimlarni o'qitish uchun o'rtacha xodimlar soniga qarab xarajatlar nisbatining samaradorligini baholaydi.

Ko'rsatkich **6 103 ming. so'm/kishini** tashkil qiladi. SMK – **8,22**.

9.2.7. Kadrlar almashinuvi koeffitsiyenti

Ushbu koeffitsient tashkilot xodimlarining soni qancha qisqarganligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkich **1,00** ni tashkil qiladi. SMK – **7,07**.

9.2.8. Energiya samaradorligi

Bu ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi energiya tannarxining energiya samaradorligi bo'yicha ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi energiya xarajati ari koeffitsientini ko'rsatadi.

Ko'rsatkich **0,01** ni tashkil qiladi. SMK – **8,0**.

Ma'lumot uchun: "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK Biznes-rejasiga doir ochiq axborot O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining <https://kpi.davaktiv.uz/bussines> hamda "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK uzaeronavigation.com saytlariga joylashtirilgan.

Direktor



MIB Boshlig'i

D.I. Djumayev

N.A. Ananova